



DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANIGAN HOLDA O'QUV JARAYONIDA TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH

Ismatov Dilmurod Elmurodovich

Osiyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

dilmurod7271@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada majburiy fanlardan ishlab chiqilgan mobil dasturlarning ta'lim sohasida tutgan o'rni hamda uning qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Tayyorlangan mobil ilovalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda ilmiy asoslangan yondashuv va tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, modernizatsiya, mobil ta'lim, LMS, CMS, tendensiya, smartfon.

Bugungi kunga kelib, dunyoda ta'lim berish va ta'lim olish dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Chunki aynan sifatli ta'lim biz yashab turgan dunyoni turli muammolardan qutqarishda muhim rol o'ynashi xech kimga sir emasligi ma'lum, shu sababli barcha rivojlangan davlatlar ta'lim sifatini oshirishga katta mablag' sarflanib kelinmoqda. Bu borada mamlakatimizda ham juda keng ko'lamli ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Shunday bo'lishiga qaramay ta'lim tizimida hali ham o'z yechimini topmagan bir qator masalalar borki ularni bartaraf etmasdan zamonaviy va sifatli ta'lim haqida gapirib bo'lmaydi. Ayniqsa, axborot olish va foydalanish tezligi juda tezlashgan hozirgi davrda, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jalb etmasdan ta'lim sifatini oshirib bo'lmaydi. Ilgari ta'lim dasturlari an'anaviy usulda, ya'ni ma'ruza shaklida olib borilgan. Bu ishlar yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan [1]. Bugungi kunga kelib, ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Bu esa ta'lim oluvchiga zamonaviy qulayliklar yaratib, ta'lim olishni osonlashtiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimining vositalarini: multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi.

Raqamli ta'lim oliy ta'lim tizimiga kirib kelishini nazarga tutibgina qolmay, har bir talabaning individual qobiliyatini oshirishiga qaratilgan holda o'quv jarayonini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratib berib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, talabalarning talabi va istagiga binoan darsliklar raqamlashtirilib, ular asosida masofaviy kurslar tashkil etilmoqda.

Oldimizga qo'yilgan maqsadimizga ko'ra, dasturiy ta'minotlar ikki turga ya'ni, tizimli va amaliy dasturlarga bo'lib o'rganiladi. Bu ishda asosan ta'lim jarayonida qo'llaniladigan dasturlar (elektron darsliklar, mobil dasturlarini yaratuvchi) va



ta'limni boshqaruvchi tizimlar LMS, CMS kabi dasturiy vositalardan foydalangan holda talabalarining bilim, ko'nikma va malakalari oshirib boriladi.

Fanlardan tayyorlanadigan elektron o'quv materiallarini tayyorlashda foydalaniladigan zamonaviy dasturiy vositalari bilan tanishuv va tahlilini dastur - ilova yordamida bayon qilinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, "Marketing nazariyasi asoslari" fani oliy ta'lim muassasalarida bakalavriatning Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladi. Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi talabalarda dasturiy vositalar yordamida ularni ishlatish imkoniyatlarini tahlil qilish, yangi algoritmlar yarata olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Yuqorida aytib o'tilgan fandan ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv xonasida, amaliy mashg'ulotlar esa kerakli dasturiy ta'minotlar bilan jihozlangan o'quv xonalarida olib borilishi talab qilinadi.

Mobil ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni talabaga taqdim etish masalasi hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanib kelinmoqda. Bu jarayonlarda mobil ta'lim dasturini yuqori darajada ishlab chiqish, quyidagilarga tayanadi:

- tayyorlangan mobil ta'lim dasturlarini kichik guruhlarda sinovlardan o'tkazish va tajribali pedagoglar tomonidan bildirilgan tavsiyalarni e'tiborga olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi;
- mobil ta'lim dasturlarini talabalar uchun ishlab chiqarish xizmatlarini tashkillashtiruvchi mutaxassis dasturchilar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu jarayondagi muammolar bartaraf etilganda, fan bo'yicha mavzularni zamonaviy ta'lim beruvchi pedagoglar dars jarayonida raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

AKT sohasida raqamli ta'lim texnologiyasiga asoslangan holda, talab va taklif aniq va tushunarli ma'lumotlar bazasi orqali talabalarga taqdim etilishi, dasturlash sohasida raqamli ta'lim bozori shakllanishiga, rivojlanish tendensiyalari inson ishtirokisiz ham amalga oshirilishini kuzatishimiz mumkin.

Mobil dasturiy ilovalarni yaratishda bugungi kun talaba – yoshlarining mobil telefonlardan foydalanish ko'rsatgichlari ortib borayotganligi ham e'tibordan chetga qoldirmasligimiz darkor. Bu esa, barcha smartfonlar uchun mo'ljallanganligi bilan talabalarga dars va darsdan tashqari mustaqil ta'lim jarayonlarida, ya'ni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish maqsadida, mobil ilovalardan bo'sh qolgan vaqtlarida bema'lol foydalanishga mo'ljallanadi. Mobil ilovalar o'zining oson yuklab olinishi, oddiyligi, barcha kerakli bo'lgan ma'lumotlarni mujassamligi, talabalarni bilim va ko'nikmasini mustaqil rivojlantirish maqsadida har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha nazorat testlarining tuzilganligi bilan tubdan farq qiladi.

Xulosa o'rinda aytib o'tish kerakki, o'quv materiallarni dasturiy ta'minotlardan foydalanish faqatgina fanni to'liq o'zlashtirishga yordam berib qolmay, balki talabalarining bilim va ko'nikmalarini rivojlanish uchun ham xizmat qiladi. Yaratilayotgan mobil dasturlar talabalarining darsdan tashqari mustaqil faoliyatlarini



rivojlantirish, ularning kelgusida mustaqil ishlay olish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти.: Пед. фан. докт.... дисс. автореф. - Т.: 2007. – 37 б.